



ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Tafakkur, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, fikrlash, mantiqiy masala, sonli bog'lanish.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi"¹.

Zero, matematika bolalarda tafakkur, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini o'stirishi, ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon eta olishi uchun zamin hozirlaydi.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Akramova Zuxra Botir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida
masofaviy ta'lim kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7444872>

ABSTRACT

Ushbu maqolada tafakkur va tafakkur shakllari haqida qisqacha ma'lumot berilgan hamda bir necha psixologlarning fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda mantiqiy masalalarni qo'llash orqali bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari ham keltirilgan.

bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz.

¹Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.



Dunyoni bilish

tasavvur

Bevosita – sezish, idrok

Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois, dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bavoita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib, uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos.

Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidir-ki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga imkon yaratadi" deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M.V.Gamezoning fikricha "Tafakkur voqelikning umumlashgan holda so'z va o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi". U tafakkurning umumlashgan so'z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishni ta'kidlaydi.

V.V.Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish

Bavoita tafakkur

xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham uchraydi.

Keltirilgan ta'riflar orasida O.K.Tixomirovning darsligidagi ta'rif nisbatan to'liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: "Tafakkur bu – o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasiga va foydalanadigan vositalarga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir".

E.G'oziyev ko'pchilik fikriga tayangan holda, tafakkurga quyidagi shartli ta'rifni bergan. "Tafakkur bu – atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon ijtimoiy-sababiy bog'lanishlarni anglashga yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir".

B.S.Abdullayevaning fikricha mantiqiy tafakkur – voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir.

O'qituvchi o'quvchilarining tafakkurini to'g'ri shakllantirish uchun har bir imkoniyatni to'la ishga solishi kerak:

1.O'quvchilarni to'g'ri ta'rif berishga, tahlil qilishga, taqqoslashga, obstraksiyalash va umumlashtirishga o'rgatishi shart.

2.O'z fikrini to'g'ri, aniq va ravon izhor etish yo'lini tushuntirish.

3. Mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish o'quvchilarda



aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo o'quvchilar oldiga turli tuman ob'ektlarni mustaqil taqqoslash, ularda o'xshash va tafovut topish zaruriyatini qo'yish kerak.

Insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

O'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy masalalarni yechish bo'yicha

Yozma ish

1-variant

1. Taqsimchada 9 ta olma bor edi. Lola 1 ta olmani yeb qo'ydi. Taqsimchada nechta olma



qoldi?

2. Qaysi son tushurib qoldirilgan? 11, 12, 13, ..., 15

3. Taqqoslang: $30 \square 20$ $30 \square 39$ $50 \square 48$

4. 17 va 19 sonlari o'rtasida joylashgan sonni toping.

5. Nuqtalar o'rniga "+", "-" belgilaridan birini qo'ying:

$50 \dots 20 = 70$

2-variant

1. Taqsimchada 8 ta apelsin bor edi. Komila 1 ta apelsinni yeb qo'ydi. Taqsimchada nechta



apelsin qoldi?

2. Qaysi son tushurib qoldirilgan?

21, 22, 23, ..., 25

3. Taqqoslang: $27 \square 40$ $27 \square 29$ $25 \square 35$

4. 14 va 16 sonlari o'rtasida joylashgan sonni toping.



5. Nuqtalar o'rniga "+", "-" belgilaridan birini qo'ying:

$$60...30 = 90$$

Nazorat ishi natijalariga ko'ra, sinov guruhi o'quvchilari nazorat guruhi o'quvchilariga qaraganda berilgan mavzularni nisbatan mustahkamroq o'zlashtirganlari aniqlandi. Bu esa ishlab chiqilgan kompleksning turli komponentlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilinishi orqali o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi, matematik tasavvuri, Test

1. Tushirib qoldirilgan sonni belgilang. 1 2 3 ... 5.

a) 2 b) 4 d) 3

2. 3 sonining oldi qo'shni sonni belgilang.

a) 2 b) 4 d) 1

3. 5 sonining oldi qo'shni sonini belgilang.

a) 3 b) 2 d) 4

4. 3 va 5 sonlar orasida joylashgan sonni belgilang.

a) 2 b) 4 d) 1

5. Ifoda to'g'ri bo'lishni uchun katakcha o'rniga mos sonni yozing.

$$... + 3 = 5$$

a) 4 b) 2 d) 8

6. Javobi to'g'ri bo'lgan misolni belgilang.

a) $2 + 1 = 5$

b) $3 + 2 = 5$

d) $4 + 2 = 5$

7. Sonlar tartibi to'g'ri yozilgan qatorni belgilang.

a) 1247689 10 35

b) 123456789 10


8. Ifoda to'g'ri bo'lishi uchun katakcha o'rniga mos son qo'ying.

$$2 + ... = 4$$

a) 1 b) 3 d) 2

mantiqiy fikrlashi, ijodiy fikrlashi rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Tadqiqotning yakunida tajriba-sinov ishlarining natijasini yanada aniqroq ko'rish maqsadida test topshiriqlari yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishi tekshirildi.

Test uchun 30 daqiqa vaqt ajratilgan.



9.

a) 19 b) 20 d) 21



10.

a)6

b)2

d)5

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o'quvchilarning yakuniy test sinovidagi natijalariga ko'ra sinov guruhlarida o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan 10% ga oshishiga erishildi.

Demak, bundan kelib chiqadiki, ushbu kompleksni o'quv jarayoniga tatbiq etish yuqori natijalarga olib keladi.

Mantiqiy fikrlash boshqa fanlarga qaraganda matematikani o'rganish jarayonida kuchli rivojlanadi. Aynan shuning uchun ushbu ishda mantiqiy fikrlashni matematika darslarida rivojlantirish yo'llarini izladik. Hozirgi kunda maktab o'quvchilari mantiqiy misol va masalalarni darslikda berilganlarini yechishyapti xolos. Vaholanki, faqat maktab matematika darsliklaridagi mantiqiy masalalarni yechish bilan mantiqiy fikrlash kuchli rivojlanmaydi. Qo'shimcha mantiqiy masalalar yechish kerak, buning uchun maktab o'qituvchilarida mantiqiy masalalar bazasi shakllangan bo'lishi lozim. Chunki, o'quvchilarning yoshi va bilim darajasiga

mos mantiqiy masalalarni o'rgatish maqsadga muvofiq.

Mantiqiy fikrlashni matematika darslarida rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar ishlab chiqish zarur. Chunki, mantiqiy masalalarni yechishni matematik savodxonlikka zarar yetkazmagan holda amalga oshirish zarur. Biz ushbu muammoni hal qilish yo'llarini qidirdik. Matematika darslaridan 5-7 daqiqa (tashkiliy qismdan) mantiqiy masalalar yechish uchun vaqt ajratish yetarli, ammo bu tizimli bo'lishi lozim. O'quvchilar matematika darsiga qadar bir necha soat boshqa fan mashg'ulotlarida bo'lishadi, bu jarayonda o'quvchilarning e'tibori har joyda bo'ladi va hattoki, toliqish alomatlari ham kuzatiladi. O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarga mantiqiy masala berish orqali ularning e'tiborini darsga qaratishi mumkin. Mantiqiy masalalarning yana bir yaxshi jihati shundan iboratki, uni a'lochi va a'lochi bo'lmagan o'quvchilar ham birdek ishlashadi, bu esa o'z navbatida barcha o'quvchilarga ishonch va matematikani o'rganishga bo'lgan motivatsiyani beradi.

References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.
2. Abdullayeva B.S., Boboqulova O'. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish". // "Pedagogik ta'lim" jur., - TDPU, 2004, 4-son, 27-28 betlar.
3. Rahmatova f. A., Akramova Z. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari // integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2022. - T. 3. - №. 4. - c. 133-137.



4. Исроилов о. Б. «помидор»-методика, которая ускоряет процесс обучения, повышает качество обучения и самообучения //Academy. – 2020. – №. 12 (63). – с. 65-66.
5. Akramova Z. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish //Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar. – 2021. – №. November.
6. Akramova Z. Boshlang'ich sinf matematikasini o'qitishda "to'rt bo'yoq muammosi" ga oid masalalarning o'rni //Innovation in primary education. – 2021. – т. 2. – №. 3.